

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI HARBIY  
XIZMATCHILARINING MA’NAVIIY-MA’RIFIY SAVIYASINI OSHIRISH TIZIMINI  
TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA**

Yuqori professional, harbiy va vatanparvarlik burchiga sadoqatli, fidoyi va mard harbiy xizmatchilarni tarbiyalash O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda milliy armiyani izchillik bilan isloh qilish va rivojlantirish, davlatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, harbiy kadrlarni tayyorlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasining qabul qilingani, armiya va xalq birligini ta‘minlash borasida mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikdagi ishlarning kuchaytirilgani milliy armiyamiz saflarini mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan yoshlar bilan to‘ldirib borish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatchilarning hayotiy va professional ko‘nikmalarini ilm-ma‘rifat asosida qalbi va ongiga singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda ularning bilimlarini oshirib borish, yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalarida to‘sqinlik qilayotgan tizimli muammolar hanuzgacha saqlanib qolmoqda.

Xususan, oliy harbiy ta‘lim muassasalarida ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishda dunyoqarashi va fikrlash doirasi keng bo‘lgan ofitsyerlarni tayyorlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi ma‘naviy-ma‘rifiy va madaniy soha uchun zarur infratuzilmalar zamon talablariga javob bermaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etishda davlat va jamoat tashkilotlari bilan samarali hamkorlik tizimi yaratilmagan. Harbiy xizmatchilarning oilalari bilan ishlash, ularning muammolarini o‘rganish va hal etish ishlari lozim darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immuniteti shakllangan, burchiga sadoqatli, yuqori professional harbiy xizmatchilarni tayyorlash maqsadida:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi **1-ilovaga**;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” **2-ilovaga**;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazish sxemasi **3-ilovaga**;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari tomonidan yoshlarni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazish sxemasi **4-ilovaga**;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tarkibi **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida “Vatan — muqaddas, uni himoya qilish sharaflidir!” degan konseptual g‘oya asosida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish, harbiy xizmatchilarning bilimi va ma‘naviy saviyasini oshirish, axloqiy-ruhiy xislatlari va huquqiy

bilimlarini mustahkamlash bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasining Qurolli Kuchlar tizimida izchil amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

3. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasining (keyingi o'rinlarda Konsepsiya deb ataladi) asosiy vazifalari etib belgilansin:

harbiy xizmatchilarning ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlar va an'analarimizga asoslangan dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan yagona tizimni yaratish;

harbiy xizmatchilarning ongu tafakkuriga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas'uliyat tuyg'usini chuqur singdirish;

harbiy xizmatchilarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini tizimli va izchil ravishda yetkazish hamda dunyoda va yon-atrofimizda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonlariga nisbatan ularda ongli munosabat va faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, burchga sadoqat, mas'uliyat, fidoyilik tuyg'ularini oshirish;

milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o'rganish hamda tahlil etish, Vatan ozodligi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib etish asosida harbiy xizmatchilarda "O'zbekiston xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi!" degan hayotiy e'tiqodni qaror toptirish;

dinning asl mazmun-mohiyatini teran ochib berish orqali harbiy xizmatchilarga ezgulik va rahmdillik an'analarini singdirish, insonparvarlik va mehr-oqibat munosabatlarini shakllantirish hamda ularni milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom, fidoyilik va sadoqat, halollik va poklik, mustaqil fikr va sog'lom turmush tarzi asosida tarbiyalash.

4. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha respublika idoralariaro komissiyasining asosiy vazifalari etib belgilansin:

harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi va natijadorligini tahlil qilib borish, aniqlangan muammolar yuzasidan tegishli takliflar ishlab chiqish;

davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tashabbuslarini O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida tatbiq etishda amaliy yordam berish hamda samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishda ko'maklashish.

5. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida haftaning har juma kuni "Ma'naviy yuksalish va vatanparvarlik kuni" etib belgilansin va ushbu kunda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali quyidagilarga alohida e'tibor qaratilsin:

buyuk ajdodlarimizning hayoti va faoliyatidagi yorqin misollarni targ'ib qilish orqali yoshlar va harbiy xizmatchilarda jasurlik va mardlik, faxr va iftixor tuyg'ularini oshirish;

harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini mustahkamlash, ularda vatanparvarlik, Vatanga muhabbat, milliy istiqloq g'oyalariga sodiqlik, Qurolli Kuchlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish;

harbiy-ma'muriy sektorlar rahbariyati, davlat va nodavlat tashkilotlar vakillari ishtirokida harbiy xizmatchilar oilalari turmushining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini o'rganish, aniqlangan muammo va kamchiliklar bo'yicha ish rejaları ("Yo'l xaritalari") ishlab chiqish;

harbiy qism va bo'linmalarda to'plangan eng ilg'or tajribalar, jangovar tayyorgarlikda erishilayotgan yutuqlar, mamlakatimiz tarixidagi yorqin voqealarni aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilib borish maqsadida uchrashuvlar, harbiy qismlarga tashriflar tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish, burchga va Vatanga xiyonat eng og'ir jinoyat ekanini hayotiy va ta'sirchan misollar orqali yoshlar ongiga singdirib borish;

erishayotgan yutuqlar hamda harbiylik kasbi nufuzini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida maxsus teleko'rsatuv va radioeshittirishlar tayyorlash, shu jumladan, Internet butunjahon axborot tarmog'ida maqolalar, sharhlar va boshqa materiallar chop etilishini tashkil etish.

6. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Milliy gvardiyasining Qurolli Kuchlar tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda munosib hissa qo'shgan harbiy xizmatchilarga hamda fuqarolarga harbiy xizmatchilar va yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirishga katta ta'sir ko'rsatgan ishlari va yutuqlari uchun topshiriladigan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar a'lochisi" ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar a'lochisi" ko'krak nishoni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida Hukumat qarorini qabul qilsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Milliy gvardiyasi ikki oy muddatda qo'shinlarda ma'naviy-ma'rifiy va madaniy-hordiq ishlarini tashkil etish maqsadida zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash hamda zarur obyektlarni qurish bo'yicha 2019 — 2021-yillarga mo'ljallangan reja ishlab chiqsin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining Harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi, Davlat va jamoat tashkilotlari bilan aloqalar hamda yoshlar bilan ishlash bo'limi negizida ushbu boshqarma va bo'lim vazifalarini bajaruvchi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi 6-ilovaga\* muvofiq tashkil etilsin.

\* 6-ilova berilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida harbiy-vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash organlari negizida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari tashkil etilsin.

Brigadalarda (ularga tenglashtirilgan harbiy qismlarda) va alohida batalonlarda "harbiy psixolog" (ofitser) lavozimi joriy etilsin.

Harbiy okruglar boshqaruv apparatlarida "psixolog", "yetakchi sotsiolog", brigadalarda (ularga tenglashtirilgan harbiy qismlarda) va alohida batalonlarda "harbiy qism komandirining ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha maslahatchisi — Madaniyat markazi boshlig'i" (Qurolli Kuchlar xizmatchisi) lavozimlari joriy etilsin. Ularning oylik maoshlariga lavozim moyanasidan 30% miqdorda har oy qo'shimcha ustama pul to'lash belgilansin.

10. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi:

2018/2019 o'quv yilidan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Umumqo'shin fakulteti bazasida qo'shimcha "Qo'mondonlik-taktik tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar" mutaxassisligi bo'yicha ofitsyerlar tayyorlash ta'lim tizimini joriy etsin va ikki oy muddatda ushbu mutaxassislik bo'yicha malaka talablari, o'quv rejasi va dasturini ishlab chiqsin;

"Qo'mondonlik-taktik tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar" mutaxassisligiga 2018/2019 o'quv yilida, istisno tariqasida, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Umumqo'shin fakultetiga o'qishga kirgan kursantlar orasidan ularning roziligiga asosan tanlab olinishini tashkil etsin;

bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimidagi mavjud Ofitsyerlar uylarini Ma'naviyat va ma'rifat markaziga, klublarni Madaniyat markaziga aylantirsin hamda vazirlikning Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida "Turon" teatr studiyasini tashkil etsin;

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda harbiy shaharchalarda mahalla fuqarolar yig'inlarini tuzilishi tashkillashtirilsin.

Barcha tashkiliy-shtat o'zgarishlari O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlari shtat birliklarining umumiy soni doirasida o'tkazilsin.

11. Belgilansinki, ushbu qarorda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari, manfaatdor vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

12. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga ommaviy axborot vositalarida mazkur qarorning maqsad va vazifalari hamda Konsepsiyaning amalga oshirilishini yoritib borish bo'yicha maqolalar e'lon qilish va mavzuga oid ko'rsatuvlarni e'fira uzatish tavsiya etilsin.

*(12-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-dekabrda PF-5892-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son)*

13. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

14. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi X.M. Sultonov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi V.V. Maxmudov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2018-yil 4-avgust,  
PQ-3898-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son qaroriga  
1-ILOVA

## **O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish**

### **KONSEPSIYASI**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda Konsepsiya deb ataladi) ma'naviy-ma'rifiy ishlar ustuvor yo'nalishlari va asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, harbiy xizmatchilarning bilimi, ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularning qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik, mas'uliyat, sadoqat va vatanparvarlik hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish bilan bog'liq dolzarb vazifalarni davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, ta'lim-tarbiya institutlarining o'zaro hamkorlikdagi roli va ahamiyatini milliy va xalqaro huquqiy normalarini hisobga olgan holda belgilab beradi.

2. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar "Vatan — muqaddas, uni himoya qilish sharaflidir!" konseptual g'oyasi asosida tashkillashtirilib, unda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini, hududiy yaxlitligini, xalqimiz tinchligini sadoqat bilan himoya qilish eng oliy vazifa sifatida e'tirof etiladi. Mazkur g'oyaning asosiy mazmun-mohiyati mamlakatimizning tinchlik-osoyishtaligini, farovonligi va taraqqiyotini ta'minlash uchun har qanday dushmanga qarshi kurashishda o'z jonini ham ayamaydigan, vatanparvar, fidoyi, sadoqatli, halol harbiy xizmatchilar va yoshlarni shakllantirishga qaratilgan.

3. Qo'shinlarning jangovar shayligi va jangovar qobiliyatini oshirish, har tomonlama tayyorgarlikka ega, kuchli va bilimli, halol, vatanparvar, mard va jasur harbiy xizmatchilarni tayyorlash, ularning faol hayotiy pozitsiyasi va qat'iy e'tiqodi, intellektual salohiyatini, ona Vatan taqdiriga bo'lgan mas'uliyatini mustahkamlash hamda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini sadoqat va

fidoyilik bilan vijdonan bajarishga yo'naltirish, har tomonlama yetuk va komil harbiy xizmatchilarni shakllantirish konsepsiyaning asosiy mazmunini tashkil etadi.

4. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning umumharbiy nizomlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq olib boriladi.

## **2-bob. Konsepsiyaning asosiy maqsadi va vazifalari**

5. Konsepsiyaning asosiy maqsadi mustaqil, keng dunyoqarash va fikrlashga ega, iymon-e'tiqodi va irodasi mustahkam, ma'naviyatli va fidoyi, ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs — Vatan himoyachilarini tarbiyalash, ularning dunyoqarashlarini, mantiqiy, ijodiy va tahliliy fikrlash doirasini kengaytirish, ona Vatan taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

6. Quyidagilar Konsepsiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

harbiy xizmatchilarning ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlar va an'analarimizga asoslangan dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan yagona tizimini yaratish;

harbiy xizmatchilarning ongu tafakkuriga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas'uliyat tuyg'usini chuqur singdirish;

harbiy xizmatchilarga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini tizimli va izchil ravishda yetkazish hamda dunyoda va yon-atrofimizda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonlariga nisbatan ularda ongli munosabat va faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, burchga sadoqat, mas'uliyat, fidoyilikni oshirish;

milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o'rganish hamda tahlil etish, Vatan ozodligi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib etish asosida harbiy xizmatchilarda "O'zbekiston xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi!" degan hayotiy e'tiqodni qaror toptirish;

dinning asl mazmun-mohiyatini teran ochib berish orqali harbiy xizmatchilarga ezgulik va rahmdillik an'analarini singdirish, insonparvarlik va mehr-oqibat munosabatlarini shakllantirish hamda ularni milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom, fidoyilik va sadoqat, halollik va poklik, mustaqil fikr va sog'lom turmush tarzi asosida tarbiyalash;

harbiy xizmatchilarning estetik tarbiyasini kuchaytirish, ularning madaniyat va san'atning turli sohalariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ushbu maqsadda adabiyot, kino, teatr, tasviriy san'at imkoniyatlaridan keng foydalanishni tizimli asosda yo'lga qo'yish.

## **3-bob. Konsepsiyani amalga oshirish bosqichlari va yo'nalishlari**

7. Harbiy xizmatchilarning ma'naviyati va dunyoqarashlari, Vatanga bo'lgan sadoqat tuyg'ulari, vatanparvarligi, harbiy kasbga bo'lgan qiziqishlari Temurbeklar maktablarida, kichik mutaxassislarini tayyorlash markazi va oliy harbiy ta'lim muassasalarida hamda qo'shinlardagi harbiy xizmat davomida takomillashib boradi.

8. Konsepsiyani amalga oshirish borasidagi ishlar uch bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich (shakllantirish) — Temurbeklar maktablari va akademik litseylarning maxsus guruhlarida ta'lim olayotgan o'quvchi-yoshlar bilan tashkil etiladi.

Mazkur ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning turli yo'nalishlari, usul va shakllaridan foydalanilgan holda sog'lom va jismonan baquvvat, ruhan barqaror, bilimli, intellektual salohiyati yuksak, vatanparvar, fidoyi, dunyoqarashi keng yoshlar shakllanadi.

Ushbu bosqichda quyidagi masalalarga:

buyuk tariximiz, ulug'alloma va mutafakkirlarimiz, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarining mohiyatini, ajdodlar boy merosining hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini chuqur tushuntirishga;



qalbida Vatan taqdiriga yuksak daxldorlik, milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga;

Vatan himoyasi muqaddas va harbiylik sharaflil kasb ekanligi, jonajon yurti istiqboli va ravnaqi uchun kerakli mutaxassislikni tanlash zarurligiga;

yorqin misollar, adabiy asarlar, kino va teatr spektakllardagi qahramonlar orqali ular qalbida harbiy kasbga bo'lgan g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga;

harbiy tartib-intizom, odob-axloq, qat'iy ijrochilik, javobgarlik va mas'uliyat tushunchalarini singdirishga;

yoshlarda faol hayotiy pozitsiya va qat'iy e'tiqodni, milliy o'zlik va muqaddas dinimizdagi yuksak axloqiy mezonlar orqali ularda turli ko'rinishdagi yot g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga;

o'quvchilarning turli fan yo'nalishlari, chet tillari va axborot texnologiyalari, shu jumladan, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha bilimlarini mustahkamlashga;

ta'lim muassasasida va sog'lomlashtirish oromgohlarida o'tkaziladigan "Temurbekning izdoshlari", "O'zbekiston farzandlari botir bo'lur" kabi tanlov va sport musobaqalarida faol ishtirok etishiga asosiy e'tibor qaratiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ikkinchi bosqich (rivojlantirish) — oliy harbiy ta'lim muassasalari va oliy ta'lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalarida hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining kichik mutaxassislarni tayyorlash markazida ta'lim olayotgan kursantlar bilan tashkil etiladi.

*(8-bandning o'n uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-apreldagi PF-5983-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2020-y., 06/20/5983/0490-son)*

Mazkur ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning turli yo'nalishlari, usul va shakllaridan foydalanilgan holda ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, yuksak intellektual salohiyatli, Vatan manfaatlarini har narsadan ustun qo'yadigan, fidoyi, sadoqatli, halol, faol hayotiy pozitsiyaga ega hamda birinchi bosqichda shakllangan, o'z o'rnini va mutaxassislikni aniq belgilab olgan yoshlarning bilimlari rivojlantiriladi.

Ushbu bosqichda birinchi bosqich vazifalariga qo'shimcha ravishda asosiy e'tibor quyidagi masalalarga qaratiladi:

buyuk sarkardalarimizning harbiy san'ati va sarkardalik mahoratlarini, alloma va mutafakkirlarimizning ilmiy meroslarini chuqur o'rganishga;

ulug' ajdodlarimizning Vatan ozodligi yo'lida mardonavor olib borgan kurashlari, mustaqilligimizni himoya qilishda jon fido etgan yurtdoshlarimiz qahramonliklariga munosib bo'lish tuyg'ularini shakllantirishga;

O'zbekiston Respublikasi, uning xalqi va Prezidentiga sadoqat, yuksak vatanparvarlik va fidoyilik fazilatlarini rivojlantirishga;

xalqimizning ma'naviy qadriyatlari, madaniyati va urf-odatlarini hamda halollik, poklik, sadoqat va fidoyilik fazilatlarini chuqur singdirishga hamda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga;

o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishga, tanlagan kasbini chuqur o'rganishga, Vatan ravnaqi va yurt taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shishga bo'lgan intilishlari va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga.

Uchinchi bosqich (takomillashtirish/qo'llash) — qo'shinlarda muddatli va shartnoma bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan oddiy askar, serjant va ofitsyerlar tarkibi bilan tashkil etiladi.

Mazkur bosqichda ta'lim muassasalarida tahsil olgan, qo'shinlarda muddatli va mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha harbiy xizmatni davom ettirayotgan, mustahkam bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan ofitser, serjantlar va oddiy askarlar tarkibi bilan tashkil etiladi.

Ushbu bosqichda birinchi va ikkinchi bosqich vazifalariga qo'shimcha ravishda asosiy e'tibor quyidagi masalalarga qaratiladi:

ona yurtga va o'z kasbiga mehr-muhabbat, sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini mustahkamlashga, milliy va umuminsoniy fazilatlarini oshirishga, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimiz, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizga asoslangan dunyoqarashini yuksaltirishga;

Vatan himoyasi uchun jonini fido qilishga tayyor, harbiy xizmatchi sha'nini yuksaltirib borishga, O'zbekiston xalqiga, ayniqsa, yoshlarga namuna bo'lish sifatlarini oshirishga;

harbiy ixtisosliklarni puxta egallashga, har qanday sharoitda Vatan mudofaasiga shay turishga, matonat va jasorat fazilatlarini mustahkamlashga, qurol-aslaha, harbiy texnika, davlat va harbiy mulkni asrab-avaylash ko'nikmalarini takomillashtirishga;

jangovar tayyorgarlik va harbiy mahoratni muntazam oshirib borishga, harbiy jamoada qaror topgan o'zaro yordam va do'stona munosabatlarni qadrlash fazilatlarini mustahkamlashga;

har qanday qiyinchilikka tayyor, yuksak iroda va matonat bilan o'zini qahramonlikka undovchi, ziyrak, rostgo'y, chidamli va sabr-bardoshli, vatanparvarlik va fidoyi yurt himoyachisini tarbiyalashga;

dunyoqarashi va fikrlash doirasini kengaytirishga, globallashtirish jarayonlariga nisbatan ongli munosabatni, ogohlik va hushyorlikni, faol hayotiy pozitsiyani hamda mustahkam tartib va intizomga rioya qilish fazilatlarini yuksaltirishga;

fuqarolik va diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, diniy masalalar bo'yicha bilimlari va milliy mafkuramizga zid bo'lgan yot g'oyalarga qarshi tanqidiy qarash va mafkuraviy immunitetni, o'ziga ishonch, hushyorlik va ogohlik tuyg'ularini mustahkamlashga;

o'zining mustaqil fikr-mulohazalarini aniq bayon etishga, ma'naviyati va notiqlik san'atini yuksaltirishga, jamiyatda yuksak ma'naviyatni qaror toptirishda badiiy asarlarning mohiyati va ahamiyatini keng targ'ib etishga;

mas'uliyatni to'liq his etishga va xizmatda ibrat, faxr va iftixor namunasi bo'lishga, yetuk va barkamol shaxs sifatida o'z dunyoqarashlari bilan boshqalarni ergashtira olishiga.

9. Konsepsiyaning asosiy maqsadi, vazifalari va tizimi keng ma'noda davlat va jamoat tashkilotlari, shu jumladan O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ta'lim va madaniy muassasalar, dam olish maskanlari, klublar, kutubxonalar va boshqa muassasalar faoliyati bilan uzviy bog'langan holda quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

ma'naviy ishlar;

ma'rifiy ishlar;

madaniy ishlar.

10. Ma'naviy ishlar ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimining asosiy yo'nalishi bo'lib, shaxs ruhiyatini, uning o'zini-o'zi anglashi, didi, farosati, adolat va adolatsizlikni, yaxshilik bilan yomonlikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g'oyalarni qo'ya bilishi, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatini belgilab beradi.

Ma'naviy ishlar yo'nalishida harbiy xizmatchilar va yoshlarning ongi va tafakkuriga kuchli ta'sir ko'rsatadigan, qalbiga yetib boradigan, kayfiyatini ko'taradigan, yangi marralar sari ilhomlantiradigan va zamonaviy axborot va targ'ibot texnologiyalarini qo'llagan holda ta'sirchan ruhda o'tkaziladigan tadbirlar tashkil etiladi.

Ma'naviy ishlar yo'nalishidagi tadbirlar asosan ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlari va boshqa tadbirlar orqali bahs va seminar, davra suhbatlari, seminar-trening, muzokara va munozara (disput), intellektual o'yinlar kabi shakllarda, davlat va jamoat tashkilotlari, shu jumladan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Yozuvchilar uyushmasi, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, olimlar, imom-xatiblar, ijodkor ziyolilar tomonidan tashkil etiladi.

11. Ma'rifiy ishlar yo'nalishidagi tadbirlar harbiy xizmatchilar va yoshlarning milliy g'oya va mafkura, qadimiy va boy madaniyatimiz, tariximiz va azaliy qadriyatlarimiz haqidagi bilimlarini oshirishga, ularning ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy bilimlari va intellektual salohiyatlari, dunyoqarashlarini mustahkamlashga qaratilgan faoliyatdir.

Ma'rifiy ishlar deganda yoshlar va harbiy xizmatchilarning ta'lim-tarbiya va axloq-odob me'yorlari, zamon talablariga javob beradigan insoniy fazilatlarini shakllantirish, tafakkurini yuksaltirishga qaratilgan ilmiy va amaliy tadbirlar tizimi tushuniladi.

Ma'rifiy ishlar yo'nalishidagi tadbirlarda yoshlar va harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy va huquqiy bilimlarini oshirish orqali yurtimizga cheksiz sadoqat, mehr-muhabbat, ozod va obod Vatan, kelajagi buyuk davlat barpo etishdek ulug' va olijanob maqsadga e'tiqod, jasurlik va fidoyilik tuyg'ulari yuksaltirilib boriladi.

12. Madaniy ishlar ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimining ajralmas yo'nalishlaridan biri bo'lib, harbiy xizmatchilar va yoshlar ongida milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom hislarini oshirish, yuksak estetik did va axloqiy me'yorlarini shakllantirish, O'zbekiston xalqining boy tarixi, madaniyati, an'analari va urf-odatlariga hurmat, milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarini ommaviy tadbirlar orqali (muzey, teatr, kino, istirohat bog'lari, konsert va boshqa tadbirlarga tashriflar) singdiriladigan tadbirlardan iboratdir.

Madaniy ishlar tadbirlarida asosiy e'tibor professional va badiiy havaskorlik jamoalarining konsert dasturlari, buyuk ajdodlarimiz va allomalar faoliyatiga oid sahna ko'rinishlari, davlat bayramlari va tarixiy sanalarga bag'ishlangan ommaviy madaniy tadbirlari orqali harbiy jamoalarni jipslashtirishga, yoshlar va harbiy xizmatchilarning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilishidan g'ururlanish tuyg'usini yuksaltirishga, Vatanimiz xavfsizligini ta'minlash borasidagi zaruriy faoliyat sifatida ongli va ijobiy munosabatni rivojlantirishga qaratiladi.

Madaniy ishlar tadbirlari, qoida tariqasida, dam olish va bayram kunlari, madaniyat va ma'rifat markazlari, harbiy qism madaniyat markazi, kutubxona imkoniyatlaridan keng foydalanilgan holda o'tkaziladi.

#### **4-bob. Konsepsiyani amalga oshirish mexanizmi**

13. Konsepsiyani amalga oshirish mexanizmida olimlar, yozuvchi, shoir va siyosatchilar, ijodkor ziyolilar, davlat va jamoat tashkilotlarining, shu jumladan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, "Nuroni" jamg'armasi, Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengash mutaxassislari, oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari hamda harbiy xizmatchilar va o'quvchi-yoshlar ishtirok etadilar.

14. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish algoritmining asosini ta'sir o'tkazuvchi obyektlar va subyektlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning shakllari, yo'nalishlari va usullari tashkil etadi. Jumladan, unda:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan — davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, boy tariximiz, allomalarimiz merosi va sarkardalarimizning fidoyiligi, qahramonliklari, islohotlar jarayoni va harakatlar strategiyasi hamda tahdidlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan — buyuk ajdodlarimiz va allomalar faoliyatiga oid teatr spektakli va sahna ko'rinishlari, konsert dasturlari, ekskursiyalar hamda milliy g'urur, faxr va iftixor tuyg'ularni mustahkamlashga, notiqlik san'atini shakllantirishga qaratilgan ommaviy madaniy tadbirlar;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan — huquqiy bilimlarni oshirish, dunyoqarash va fikrlash doirasini kengaytirish, globallashuv jarayonlariga nisbatan ongli munosabatni, ogohlik va hushyorlikni, faol hayotiy pozitsiyani hamda mustahkam tartib va intizomga rioya qilish fazilatlarini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlar;

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan — xalqimizning ma'naviy qadriyatlari, madaniyati va urf-odatlarini, boy merosimizning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini hamda odob-axloq, halollik, poklik, sadoqat va fidoyilikni chuqur singdirishga qaratilgan davra suhbatlari;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan — islom dinining asl mazmun-mohiyatini yetkazish, diniy savodxonlikni oshirish, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik g'oyalari tarqatib qilish hamda yot g'oyalarga qarshi tanqidiy qarash va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, hushyorlik va ogohlik kabi tuyg'ularni mustahkamlashga qaratilgan uchrashuvlar;

O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan — madaniy-ma'rifiy va huquqiy targ'ibot hamda ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha yetuk soha mutaxassislarini taklif qilgan holda yoshlar va



harbiy xizmatchilar qalbida Vatan taqdiriga yuksak daxldorlik, shijoat va fidoyilik tuyg'ularini shakllantirishga, sport-salomatlik masalalariga qaratilgan ommaviy tadbirlar;

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan — mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning eng sara namunalari mazmun-mohiyatini tushuntirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda vatanparvarlik, mardlik, faxr va iftixor tuyg'ularini mustahkamlashga qaratilgan ijodiy uchrashuvlar;

Xotin-qizlar qo'mitasi, "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi tomonidan — harbiy xizmatchilar oilalarini ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, oilalarda sog'lom ma'naviy muhitni yaratish, oila sha'nini saqlashda ota-ona va farzandlar mas'uliyati va burchlari, or-nomus, qadr-qimmat, sharm-hayo kabi axloqiy me'yorlarni yetkazib borish, oilalarning ijtimoiy ahvoli, ehtiyojlari va muammolarini tizimli o'rganib borishga qaratilgan tadbirlar;

O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi, Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi tomonidan — avlodlar vorisligini saqlash, Vatanga muhabbat va keksalarga e'zoz, harbiy xizmatga hurmat tuyg'ularini shakllantirish, xalqimizning ko'p asrlik an'analarini qadrlashga da'vat etish, harbiy xizmatchilar oilalarida insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro hurmat munosabatlarini shakllantirish, ijtimoiy, siyosiy barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashga yo'naltirilgan uchrashuvlar va suhbatlar;

O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan — harbiy kasbni tanlash va soha yo'nalishini mukammal o'zlashtirish, harbiy texnik vositalardan samarali foydalanish hamda sport bilan muntazam shug'ullanish, jismoniy va ma'naviy komillikka intilish, jismonan yetuk, kuchli va shijoatli, Vatan manfaatlarini har narsadan ustun qo'yadigan, fidoyi, sadoqatli, halol, faol hayotiy pozitsiya ega yetuk mutaxassislarni tarbiyalashga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, musobaqalar va amaliy tadbirlar tashkil etib boriladi.

15. Quyidagilar Konsepsiyaning prinsiplari hisoblanadi:

vatanparvarlik;

sadoqat;

halollik;

adolat;

intizom.

16. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimining asosini quyidagilar tashkil etadi:

ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlari;

ma'naviyat soatlari (Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining yo'nalishlar bo'yicha tadbirlari, kitob mutolaasi va boshqalar);

axloqiy-ruhiy tayyorgarlik mashg'ulotlari;

huquqbuzarliklar profilaktikasi suhbatlari;

ma'naviy yuksalish va vatanparvarlik kuni tadbirlari (mardlik darslari, aksiyalar, davra suhbatlari, ekskursiya, tashriflar, musobaqalar va boshqalar);

badiiy va hujjatli filmlar namoyishi;

ommaviy madaniy tadbirlar (teatr spektakli, sahna ko'rinishlari, konsert dasturlari, badiiy va ijodiy kechalar, uchrashuvlar, badiiy havaskorlik jamoalarining chiqishlari).

17. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi tadbirlarida harbiy xizmatchilarning faol ishtirok etishiga, fikr va tuyg'ularini erkin bayon qilishiga hamda shu orqali notiqlik san'atini oshirishga e'tibor qaratiladi. Unda quyidagi shakllar ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi:

seminar-treninglar, muayyan mavzuga bag'ishlangan kechalar, ijodiy uchrashuvlar, bahs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari;

boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan harbiy xizmatchi va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g'olib bo'lgan shaxslar bilan uchrashuvlar;

teatr spektakli va sahna ko'rinishlari, badiiy asarlar muhokamasi, savol-javob kechalari, yakka va jamoaviy suhbatlar;

teleko'rsatuv va radioeshittirishlar, film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, askar qo'shiqlari, elektron o'yinlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish;

urush va mehnat faxriylari, jangovar harakatlar ishtirokchilari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan uchrashuvlar;

to'plangan ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish;

harbiy xizmatga chaqiriluvchilar kuni, mardlik saboqlarini o'tkazish va ekskursiyalar uyushtirish.

18. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi tadbirlarini tashkil etishda targ'ibot ishlari muhim ahamiyatga ega. Targ'ibot ishlari orqali yoshlar va harbiy xizmatchilar orasida yuksak marralarga va ilg'orlikka erishgan namunali shaxslar va zamon qahramonlarining faoliyati va ishlarini targ'ib etib borish, ularning sadoqat va burch, halollik va poklik, mas'uliyat va javobgarlik, jasurlik va mardlik, yuksak vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlab borish, ularga g'oyaviy-siyosiy ta'sir qilish hamda harbiy xizmat bilan bog'liq (davlat va jamiyat) manfaatlarni ifoda etishga qaratilgan tadbirlar tashkil etiladi.

Targ'ibot ishlari harbiy qism qo'mondonligining ijodiy uyushmalar, madaniyat muassasalari, davlat va jamoat tashkilotlari, shu jumladan O'zbekiston yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda yoshlar va harbiy xizmatchilarning tizimli va maqsadli faoliyatini ifodalaydigan, ularga ma'naviy tushuncha va tamoyillarni chuqur singdiradigan, ongi va qalblarida vatanparvarlik, sadoqat, faxr va g'urur tuyg'ularini hamda mustahkam iroda, Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissini oshiradigan, yuklatilgan o'quv-jangovar vazifalarni sifatli va o'z vaqtida to'laqonli bajarishga yo'naltiradigan amaliy tadbirlar majmui hisoblanadi.

Targ'ibot ishlari og'zaki shaklda (tezkor axborot, suhbatlar, ma'ruzalar, muayyan mavzuga bag'ishlangan muzokara va seminarlar, mavzuli kechalar, munozara va bahslar), nashrli (gazeta, jurnal, devoriy gazeta, qo'llanma, jangovar varaqa, kitob va boshqa adabiyotlar mutolaasi), ko'rgazmali vositalar (plakat, fotomontaj, panno, rasmlar, kitob ko'rgazmalari, shuningdek, radio eshittirish va radiomuloqotlar, tele-video dasturlarni jamoa bo'lib tomosha va muhokama qilish hamda boshqalar) orqali olib boriladi.

19. Qurolli Kuchlarga munosib nomzodlarni tayyorlab beruvchi Temurbeklar maktabidan boshlab oliy harbiy ta'lim muassasalari, harbiy qismlargacha qamrab olgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi orqali yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, o'z kasbiga sadoqatli va fidoyi, komil harbiy xizmatchilar yetishib chiqadi.

20. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishlarida tashkil etiladigan barcha tadbirlar yoshlar va harbiy xizmatchilarni yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, halol, o'z kasbiga sadoqatli va fidoyi yurt posbonlari bo'lib shakllanishiga hamda ular yordamida mamlakatimizning o'sib kelayotgan haqiqiy vatanparvar yoshlarini tarbiyalashga imkon yaratib beradi.

### **5-bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natija**

21. Konsepsiyada belgilangan tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, o'z kasbiga sadoqatli va fidoyi harbiy xizmatchi kamol topadi.

22. Ma'nan yetuk, harbiy ixtisosliklarni puxta egallagan, har qanday sharoitda Vatan mudofaasiga shay, matonat va jasoratda, hayotda va harbiy xizmatda namuna bo'lgan harbiy xizmatchilar imkoniyatlaridan keng foydalangan holda Konsepsiyada belgilangan natijalarga erishiladi.

23. Mazkur Konsepsiya Qurolli Kuchlar tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini tizimli va bosqichli ravishda yuksaltirib borish, ular qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik, mas'uliyat, sadoqat va vatanparvarlik hissini mustahkamlash uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

24. Konsepsiyaning amalga oshirilishi har jihatdan sodiq, halol, vatanparvar, mard va jasur harbiy xizmatchini tarbiyalash bilan birga xalqimiz o'rtasida harbiy xizmatchilarga nisbatan faxr va iftixor tuyg'ularini mustahkamlash, yoshlarda harbiy kasbga bo'lgan havas va qiziqishlarini oshirish hamda bu orqali Qurolli Kuchlarni mustahkam irodali, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlar bilan to'ldirib borish imkonini beradi.

**O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha**

**“YO‘L XARITASI”**

<b>T/r</b>	<b>Tadbirlar nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Bajarish muddatlari</b>	<b>Mas’ul ijrochilar</b>
<b>I. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish va tashkiliy ishlar</b>				
1.	Oliy harbiy ta’lim muassasalarida ofitsyerlarni tayyorlashning amaldagi tizimini chuqur tahlil qilish hamda ularning vatanparvarlik fazilatlarini, ma’naviy va madaniy darajasini oshirish choralarini ko‘rish.	<p>1. Amaldagi tizimni chuqur tahlil qilish bo‘yicha ishchi guruhlar tuzish.</p> <p>2. Gumanitar fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, mukammal o‘quv rejasi va dasturini ishlab chiqish.</p> <p>3. “Qo‘mondonlik-taktik tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar” mutaxassisligi bo‘yicha ofitsyerlar tayyorlashning ta’lim tizimini joriy etish.</p> <p>4. Etakchi olim va professorlar ishtirokida o‘quv seminari va anjumanlar o‘tkazish rejasini ishlab chiqish va amalga oshirilishini yo‘lga qo‘yish.</p>	<p>2018-yil sentyabr 2018-yil oktyabr</p> <p>2018-yil sentyabr, doimiy</p>	Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi

2.	<p>Qo‘shinlarda harbiy-vatanparvarlik va ma‘naviy-axloqiy tarbiya ishlarini tanqidiy tahlil qilish va harbiy xizmatchilarning ma‘naviy-ma‘rifiy saviyasi va notiqlik san‘atini oshirish, dunyoqarashini mustahkamlash bo‘yicha tadbirlar o‘tkazilishini tizimli yo‘lga qo‘yish.</p>	<p>1. Amaldagi tizimni chuqur tahlil qilish va dastur ishlab chiqish bo‘yicha ishchi guruhlar tuzish.</p> <p>2. Tegishli ta‘lim muassasalari va jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik bo‘yicha memorandum va boshqa hujjatlar qabul qilish.</p> <p>3. Mashg‘ulotlar, tadbirlar o‘tkazish umumiy rejasi va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar dasturini ishlab chiqish.</p> <p>4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining harbiy qismlarda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil qilib borish bo‘yicha tegishli qarorlarini chiqarish.</p> <p>5. “Harbiy qism va muassasalarda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar” nomli o‘quv qo‘llanmasini ishlab chiqish.</p>	<p>2018-yil sentyabr 2018-yil noyabr</p> <p>2018-yil noyabr</p> <p>2018-yil dekabr</p> <p>2018-yil dekabr</p>	<p>Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi</p>
3.	<p>Qo‘shinlardagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari ofitsyerlarining bilim saviyasi va notiqlik san‘atini yuksaltirish, dunyoqarashi, fikrlash doirasini oshirib borish bo‘yicha malaka oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish.</p>	<p>1. Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari ofitsyerlarining malakasini oshirish dasturini ishlab chiqish.</p> <p>2. Malakani oshirish bo‘yicha tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari ofitsyerlarining ro‘yxati va malaka oshirish jadvalini tuzish.</p> <p>3. Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari ofitsyerlarining malaka oshirish kurslarini tashkil etib borish.</p> <p>4. Malaka oshirish kurslarida tahsil olgan tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari ofitsyerlarining xizmatini tahlil qilib borish.</p>	<p>2018-yil oktyabr</p> <p>har yili fevral, iyul oylarida doimiy</p> <p>doimiy</p>	<p>Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi</p>

4.	<p>Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilari lavozimlariga yuqori bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan ofitsyerlarning tayinlanishini yo'lga qo'yish.</p>	<p>1. O'qituvchi lavozimlariga nomzodlarni saralab olish, malakasini oshirish va ularning qo'shinlarda xizmat qilish tartibining yangi mexanizmini ishlab chiqish. 2. O'qituvchilarni qo'shinlarning jangovar bo'linmalaridagi lavozimlarga tayinlash orqali ta'lim jarayonini harbiy qismlarning kundalik faoliyati bilan bog'liqligini ta'minlash.</p>	<p>2018-yil oktyabr  2018-yil dekabr, doimiy</p>	<p>Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi</p>
5.	<p>Harbiy okruglar boshqaruv apparatida "psixolog" va "yetakchi sotsiolog", brigadalarda va alohida batalonlarda "harbiy psixolog", "harbiy qism komandirining ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha maslahatchisi — Madaniyat markazi boshlig'i" lavozimlarini joriy etish.</p>	<p>1. Tegishli direktiva orqali harbiy okruglar boshqaruv apparatida, brigadalar va alohida batalonlarda yangi lavozimlarni kiritish. 2. Lavozimlar uchun xizmat vazifalari va funksional majburiyatlarni ishlab chiqish. 3. Lavozimlarga mutaxassislarni saralash va ularni lavozimlarga tayinlash. 4. Lavozimlarga tayinlangan shaxslarga funksional majburiyatlarini bajarishda amaliy yordam berish.</p>	<p>2018-yil sentyabr  2018-yil oktyabr  2018-yil dekabr  doimiy</p>	<p>Mudofaa vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>
6.	<p>O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida "Ma'naviy yuksalish va vatanparvarlik kuni" tadbirlarini tizimli ravishda tashkil etish.</p>	<p>1. "Ma'naviy yuksalish va vatanparvarlik kuni"ni tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqish va joylarga yetkazilishini ta'minlash. 2. "Ma'naviy yuksalish va vatanparvarlik kuni"ni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish.</p>	<p>2018-yil sentyabr  doimiy</p>	<p>Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>



7.	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi Ofitsyerlar uylarini Ma'naviyat va ma'rifat markaziga, klublarni Madaniyat markaziga aylantirish.	<p>1. Mavjud Ofitsyerlar uyi va klublar faoliyatini tahlil qilish.</p> <p>2. Ma'naviyat va ma'rifat markazi va Madaniyat markazlarining nizom va ish rejalarini ishlab chiqish.</p> <p>3. Ma'naviyat va ma'rifat markazi va Madaniyat markazlariga kerakli bo'ladigan jihoz va vositalar ro'yxatini tuzish hamda bosqichma-bosqich jihozlar bilan ta'minlash.</p> <p>4. Ma'naviyat va ma'rifat markazi va Madaniyat markazlarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish.</p>	<p>2018-yil sentyabr 2018-yil oktyabr</p> <p>2018-yil oktyabr</p> <p>2019-yil, doimiy</p>	Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
8.	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida "Turon" teatr studiyasini tashkil etish va mazkur studiya orqali ajdodlarimiz, tajribali ijodkor va mohir sarkardalar haqida teatr spektakllarini namoyish etib borish.	<p>1. Tegishli direktiva orqali Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida "Turon" teatr studiyasini tuzish.</p> <p>2. "Turon" teatr studiyasi shtatini shakllantirish va tajribali ijodkor va san'atkorlarni jalb etish.</p> <p>3. "Turon" teatr studiyasini zarur jihoz va vositalar bilan ta'minlash hamda repertuarini boyitish.</p> <p>4. Teatr studiyasi repertuariga asosan mohir sarkardalar haqida teatr spektakllarini namoyish etish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil oktyabr</p> <p>2018-yil dekabr</p> <p>doimiy</p>	Mudofaa vazirligi, Madaniyat vazirligi, Toshkent shahar hokimligi
9.	Harbiy okruglar va harbiy qismlarda ma'naviy-ma'rifiy obyektlarni barpo etish hamda ularni zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash bo'yicha 2019 — 2021-yillarga mo'ljallangan chora-tadbir rejasini ishlab chiqish.	<p>1. Harbiy okruglar va harbiy qismlarda ma'naviy-ma'rifiy obyektlarni qurish bo'yicha holatni o'rganish.</p> <p>2. Ma'naviy-ma'rifiy obyektlarni qurish bo'yicha takliflar tayyorlash hamda zarur bo'ladigan zamonaviy jihozlar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>3. Ma'naviy-ma'rifiy obyektlarni qurish hamda ularni jihozlash bo'yicha 2019 — 2021-yillarga mo'ljallangan rejani Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2018-yil oktyabr</p> <p>2018-yil noyabr</p> <p>2018-yil dekabr</p>	Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

10.	Harbiy qism va harbiy ta'lim muassasalarining kutubxonalari faoliyatini takomillashtirish.	<p>1. Ishchi guruh tuzish hamda kutubxonalar faoliyatini o'rganish.</p> <p>2. Kutubxonalarni zarur mebel va jihozlar hamda ko'rgazmali vositalar bilan ta'minlash.</p> <p>3. Harbiy xizmat mutaxassisliklari yo'nalishlari hamda eng sara badiiy adabiyotlarning ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>4. Ro'yxat asosida kutubxonalarni kitoblar bilan ta'minlash hamda elektron adabiyotlar bazasini yaratish.</p> <p>5. Harbiy qism va harbiy ta'lim muassasalarida ko'chma kitob javonlari tashkil qilish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil noyabr</p> <p>2018-yil dekabr</p> <p>2019-yil yanvar</p> <p>2019-yil fevral</p>	Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Yozuvchilar uyushmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
11.	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda faol ishtirok etayotgan harbiy xizmatchilar va fuqarolarni "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlab borish.	<p>1. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda faol ishtirok etayotgan harbiy xizmatchilar va fuqarolarni ro'yxatini tuzish.</p> <p>2. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida Ma'naviy-ma'rifiy ishlar targ'ibotini tizimli ravishda tashkil etish.</p> <p>3. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha faollik ko'rsatgan harbiy xizmatchilar va fuqarolarni ko'krak nishoni bilan taqdirlashga tavsiya etib borish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil oktyabr</p> <p>har yili 1-yanvar</p>	Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Yozuvchilar uyushmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
<b>II. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishning samarali tizimini yaratish</b>				

12.	Ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida o'tkaziladigan tadbirlarga taniqli fan, madaniyat, san'at va adabiyot, din arboblari, soha yo'nalishi bo'yicha ilg'or mutaxassislarni keng jalb etib borish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida o'tkaziladigan mashg'ulotlar va tadbirlar rejasiga aniqliklar kiritish.</li> <li>2. Harbiy qismlardan jamoat tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ta'lim muassasalariga chorak davomida tadbirlar haqida buyurtmalar yo'llash.</li> <li>3. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishidagi tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish.</li> </ol>	<p>2018-yil 1-sentabr har chorak oxirgi oyining 20 sanasida</p> <p>doimiy</p>	<p>Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>
13.	Adabiyotshunos olimlar, taniqli yozuvchi va shoirlar ishtirokida yangi nashr etilgan adabiyotlar taqdimotlari, adabiy-badiiy kechalar, uchrashuv va jonli muloqotlar, yangi nashr etilgan kitoblarning taqdimotini o'tkazib borish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Adabiy-badiiy kechalar, uchrashuv va jonli muloqotlar, yangi nashr etilgan kitoblarning taqdimotini o'tkazish rejasini tasdiqlash.</li> <li>2. Harbiy qism va harbiy ta'lim muassasalarida tizimli ravishda tashkil etish.</li> <li>3. Tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish.</li> </ol>	<p>har chorak oxirgi oyining 20 sanasida</p> <p>doimiy</p> <p>doimiy</p>	<p>Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi</p>
14.	Harbiy xizmatchilar o'rtasida insonni ma'naviy va g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, halollik, axloq-odob ruhida tarbiyalashga qaratilgan uchrashuv va davra suhbatlar tashkil etish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Uchrashuv va davra suhbatlarining rejasini tasdiqlash.</li> <li>2. Harbiy qismlarda uchrashuv va davra suhbatlar tashkil etish.</li> <li>3. Tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish.</li> </ol>	<p>har chorak oxirgi oyining 20 sanasida</p> <p>rejaga asosan doimiy</p>	<p>Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi</p>
15.	Harbiylar xizmatchilar oilalarida sog'lom muhitni qaror toptirish maqsadida shoir va yozuvchilar, taniqli adabiyot namoyondalari ishtirokida adabiy kechalar va uchrashuvlar tashkil etish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Harbiy xizmatchilar oilalarida sog'lom muhitni qaror toptirishga qaratilgan tadbirlar rejasini ishlab chiqish.</li> <li>2. Reja asosida shoir va yozuvchilar, taniqli adabiyot namoyondalari ishtirokida insoniy fazilatlarini ochib beruvchi adabiy kechalar va uchrashuvlar tashkil qilish.</li> <li>3. Tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish.</li> </ol>	<p>har chorak oxirgi oyining 20 sanasida</p> <p>rejaga asosan</p> <p>doimiy</p>	<p>Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Yozuvchilar uyushmasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi</p>

16.	Harbiy qismlardagi komandirlik lavozimlarida xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarni yetakchilik sifatlariga, nutq madaniyati va notiqlik san'atini rivojlantirishga qaratilgan ma'ruza mashg'ulotlari va seminar-treninglar o'tkazish.	<p>1. Tegishli fanlar yo'nalishida mavzular ro'yxati, yillik reja-dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>2. O'quv guruhlari, tadbirlarni o'tkazuvchi shaxslar va mas'ullar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>3. Ilg'or tajribalar asosida seminar-treninglar o'tkazib borish.</p>	<p>har chorak oxirgi oyining 20 sanasida</p> <p>rejaga asosan</p>	<p>Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi</p>
17.	Harbiylar xizmatchilarning hududlardagi tarixiy obidalar, muzeylar, ziyoratgohlar va diqqatga sazovor joylarga muntazam tashriflar uyushtirib borish.	<p>1. Tarixiy obidalar, muzeylar, ziyoratgohlarga tashrif reja-jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>2. Tarixiy obidalar, muzeylar, ziyoratgohlarga tashriflarni tashkil etish.</p> <p>3. Tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish.</p>	<p>har chorak oxirgi oyining 20 sanasida</p> <p>rejaga asosan</p> <p>doimiy</p>	<p>Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Madaniyat vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari</p>
18.	Harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi va bilimini oshirish, notiqlik san'atini rivojlantirish, dunyo-qarashlarini shakllantirish hamda harbiy xizmatchilar erishayotgan yutuqlar va ularning ijtimoiy himoyasi borasida amalga oshirib ayotgan ishlar haqida respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlar uyushtirish.	<p>1. Harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi va bilimini oshirish, notiqlik san'atini rivojlantirish, dunyoqarashlarini shakllantirish tadbirlarini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha media-reja ishlab chiqish.</p> <p>2. Harbiy xizmatchilar erishayotgan yutuqlar va ularning ijtimoiy himoyasi borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida maqolalar va ko'rsatuvlar tayyorlash.</p> <p>3. Harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi va bilimini oshirish borasida tashkil etilayotgan tadbirlar haqida respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlar qilish.</p>	<p>har chorak oxirgi oyining 20 sanasida</p> <p>rejaga asosan</p> <p>rejaga asosan</p>	<p>Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>


19.	O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy ishlarining yangi shakl va usullarini yaratib borish va ularni tatbiq etish.	<p>1. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarining yangi shakl va usullarini ishlab chiqish bo‘yicha mutaxassislar va ijodkorlarni jalb qilish.</p> <p>2. Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha tanlovlar tashkil etish.</p> <p>3. Tanlov natijalariga asosan metodik va o‘quv qo‘llanmalari yaratish.</p>	<p>2018-yil noyabr</p> <p>2019-yil yanvar</p> <p>2019-yil mart</p>	Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Faqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Madaniyat vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Yozuvchilar uyushmasi
-----	--	--	--	--

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son qaroriga  
3-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazish**

**SXEMASI**






Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йил 4-августдаги PQ-3898-сон қарорига  
4-ILOVA

**Ўзбекистон Республикаси Қуrolли Кучлари ҳарбий хизматчилари томонидан юшларни юксак  
ватанпарварлик руҳида тарбиялашга қаратилган тadbirlарни о‘tkazish**

**SXEMASI**



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son qaroriga  
5-ILOVA

## O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi

### TARKIBI

*Oldingi tahrirga qarang.*

1. A. Azizov — O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri, *respublika idoralararo komissiyasi rahbari*
2. A. Kadirov — Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari, *respublika idoralararo komissiyasi rahbari o‘rinbosari*
3. A. Ikramov — O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining o‘rinbosari, *respublika idoralararo komissiyasi rahbari o‘rinbosari*
4. D. Nazarmuxamedov — O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining birinchi o‘rinbosari
5. A. Qo‘ldoshev — O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirining birinchi o‘rinbosari

6. kelishuvga asosan — O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati raisining o‘rinbosari
7. Sh. Shakirov — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondonining o‘rinbosari
8. Sh. Jalilov — O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroni” jamg‘armasi raisi
9. Sh. Javlonov — Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi raisining birinchi o‘rinbosari
10. D. Tashmuxeimedova — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi direktori
11. O. Tadjiyev — O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisining birinchi o‘rinbosari
12. M. Kamilov — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita raisining birinchi o‘rinbosari
13. O. Kasimov — O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirining birinchi o‘rinbosari
14. Z. Mahkamova — O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari
15. N. Xolbo‘tayev — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining o‘rinbosari
16. O. Abduraxmanov — O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining birinchi o‘rinbosari
17. S. Boboxo‘jayev — O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi vazirining o‘rinbosari
18. K. Akilova — O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining o‘rinbosari
19. M. Istamov — O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining o‘rinbosari
20. N. Mullabayev — O‘zbekiston mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisining birinchi o‘rinbosari
21. K. Allamjonov — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori v.b.
22. A. Xadjayev — O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi raisi vazifasini bajaruvchi
23. A. Ko‘chimov — O‘zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori
24. Lavozimiga ko‘ra — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi raisining o‘rinbosari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari

**Izoh:**

Respublika idoralararo komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki tegishli vazifalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida respublika idoralararo komissiyasi tarkibi asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari rahbarligida hududiy komissiyalar tashkil etiladi.

*(5-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-dekabrda PF-5892-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son)*

*(Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 08.08.2018-y., 07/18/3898/1622-son; 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son; 23.04.2020-y., 06/20/5983/0490-son)*